

**BOLANING O'SISHI VA RIVOJLANISHI MAVZUSIDA QO'LANILADIGAN
PETTEXNALOGIYALAR****Boymirova Muyassar****Omonova Durdona***DTPI aniq va tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi 4-bosqich talabalari*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Bolaning o'sishi va rivojlanishi mavzusida qo'laniladigan pettexnologiyalar haqida fikr mulohazalar yuritilgan. Bu pettexnologiyalar afzaliklari, qo'lash usulari haqida ham aytib o'tilgan. Bolaning o'sishi va rivojlanishi mavzusi haqida ham qisqacha malumotlar keltirib o'tilgan. Bu maqolada quydagi pettexnologiyalar yoritib o'tilgan klaster, word wall, ven diagrammasi metodlari.*

Kalit so'zlar: *Chaqaloqlik, Go'daklik, Maktabgacha tarbiya, Maktab yoshi, klaster metodi, word wall metodi, ven metodi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются пет-технологии, используемые в области роста и развития детей. Также обсуждаются преимущества и методы применения этих пет-технологий. Приводится краткая информация по теме роста и развития детей. В статье рассматриваются следующие пет-технологии: кластерный метод, метод «словарной стены» и метод вен дийаграма*

Ключевые слова: *младенчество, раннее детство, дошкольный возраст, школьный возраст, кластерный метод, метод словарной стены, метод вен дийаграма*

Abstract: *This article discusses the pet technologies used in the field of child growth and development. The advantages and methods of use of these pet technologies are also discussed. Brief information about the topic of child growth and development is also provided. This article covers the following pet technologies: cluster, word wall, and ven diagrammasi methods.*

Keywords: *Infancy, Toddlerhood, Preschool, School age, cluster method, word wall method, ven diagrammasi method*

Odam organizmining rivojlanish davrlari. Ona suti chaqaloqqa juda foydali bo'lib, uning tarkibida chaqaloqning sog'lom o'sishi uchun zarur bo'lgan barcha moddalar mavjud. Shuning uchun ona sutini emadigan bolalar yaxshi o'sib rivojlanadi, kam kasal bo'ladi.

Chaqaloq tug'ilgandan so'ng 16-18 yoshgacha bolalik, 16-21 yoshgacha yigitlik yoki navqironlik, 22-60 yosh yetuklik, 60-75 yosh keksalik va 75 yoshdan yuqorisi qarilik davri deb ataladi.

Bolalik davri o'z navbatida chaqaloqlik, go'daklik, maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlik davrlariga ajratiladi. Chaqaloqlik davri. Bu davr bola tug'ilganidan boshlab bir oylik muddatni o'z ichiga oladi.

Bola tug'ilishi bilan uning kichik qon aylanish doirasi, nafas olish va ovqat hazm qilish sistemalari ishlay boshlaydi.

Go'daklik davri. Bu davr bir oydan boshlanib, bir yoshgacha davom etadi. Bir oylik bola chiroqqa, qimirlayotgan narsalarga qaraydi. Uch oylikda tovush chiqqan tomonga boshini buradi va kuladi, onasi va o'yinchoq tomonga talpinadi, boshini tik tutadigan bo'ladi.

Bola 5 oylik bo'lganida o'z yaqinlarini taniy boshlaydi, ularni ko'rganda kuladi va qiyqiradi, o'yinchoqlari bilan o'ynaydi. 6—7 oylikda bolaning sut tishlari chiqa boshlaydi. Yetti oylik bola emaklaydi va bemalol o'tiradi. 8 oyligida narsalarga tayanib o'rnidan turadigan bo'ladi. 11 oylik bola bir necha oddiy so'zlarni gapira oladi, yetaklaganda yuradi. Bir yoshda bola yuradi va 10-12 ta so'zlarni gapira oladi.

Go'daklik davrida bola juda tez o'sadi, tanasining vazni ham tez ortadi va organlari takomillashib boradi. Chaqaloqning umurtqa pog'onasida egiklik bo'lmaydi. Umurtqa pog'onasi bo'yin qismidagi egiklik go'dak boshini tuta boshlaganida, ko'krak egikligi o'tiradigan bo'lganida, bel egikligi yura boshlaganida paydo bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya davri. Bu davr 1 yoshdan 6-7 yoshgacha davom etadi. Bola jismoniy va ruhiy tez o'sadi, nutqi rivojlanadi. 2-3 yoshli bola juda serharakat va tinchimas bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshida suyagining ko'p qismi yumshoq va egiluvchan tog'aydan iborat. Shuning uchun bu davrda bola bir jgyda uzoq tik turib qolmasligi, og'ir yuk ko'tarmasligi, to'g'ri o'tirishni bilishi kerak.

Aks holda uning umurtqa pog'onasi, ko'krak qafasi, chanoq va oyoq suyaklari to'g'ri o'smasdan, qiyshayib qolib, qad-qomati buziladi. Bolaning nutqi, tafakkuri va harakat faolligi 2-4 yoshlarda jadal rivojlana boshlaydi. Bu davrda biron sababga ko'ra bola e'tibordan chetda qolib, tik yurishni va gapirishni o'rganolmasdan qolsa, u jismoniy va ruhiy rivojlanishdan orqada qoladi.

Maktab yoshi davri. Bolalikning bu davri 6-7 yoshdan 17-18 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bolaning hayotida va aqliy rivojlanishida keskin o'zgarishlar yuz beradi. Maktabda bola o'qish va yozishni o'rganib oladi.

Maktab yoshi davrida bola kelgusida va jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan bilim va kasb-hunarni egallay boshlaydi. Bola maktab yoshida o'smirlik davrini ham o'taydi.

Bu davrda uning ichki sekretsiya bezlari faoliyati kuchayadi, o'sishi tezlashib, ikkilamchi jinsiy belgilari rivojlanadi va balog'atga yetadi.



1-rasim.



2-rasim. Bu metod google sayti orqali tayyorlanadi.wordwall metodi hisoblanadi. Barabaning har bir qismiga o'quvchilarning ismi yozilgan bo'ladi. Baraban aylantiriladi va kimning ismiga kelib to'xtasa shu o'quvchi savolga javob beradi va baholanadir.



3-rasim.Bu ven diagrammasi metodi. Bunda uchta malumot berilgan bo'ladi va bu malumotlar uchalasi ham bir-biriga bog'liq bo'lishi kerak hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni ko'proq fikirlashiga undaydi va aqilni charxlaydi

Xulosa: o'rnida shuni takidlash joizki dars o'tayotganda turli xil pettexnologiyalardan foydalanish darsni qiziqarli va mazmunli o'tishga yordam beradi.

Shuning bilan birga barcha pedagog o'qtuvchilar pettexnologiyalarni darsda qo'lay bilish kerak hisoblanadi.Yuqorida „ Postembirional rivojlanish” mavzusida qo'lanilgan metodlar ham pettexnologiyalarni bir ko'rinishi hisoblanadi.

Bolani e'tiborini jamlashga va yaxshiroq malumotlar tushuntirib yetkazib berishga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismoilov A., Xolmatova M. Bolalar va o'smirlar fiziologiyasi va gigiyenasi — Toshkent: O'qituvchi. (Pedagogika va tibbiyot yo'nalishlari uchun darslik)
2. Mirzayev Sh. A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi — Toshkent. (Bolaning o'sishi va rivojlanish bosqichlari batafsil berilgan)

3. Qodirova F., Tursunova N. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi — Toshkent.
(Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uchun darslik)
4. Смирнов В. М., Дубровский В. И. Возрастная анатомия и физиология — Москва: Владос. (Pedagogika oliygohlari uchun darslik)
5. Алексеева Л. П. Возрастная физиология и психофизиология — Москва.
(Bolaning jismoniy va funksional rivojlanishi bo'yicha darslik)